



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek shevashunosligi markazi**

**“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:  
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari**

2024-yil 25-may

**Toshkent – 2024**

**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2024. 619 bet.**

**Mas’ul muharrir:**

**Shuhrat Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, akademik*

**Tahrir hay’ati:**

**Jamoldinova O.R.**, pedagogika fanlari doktori, professor;

**Normamatov S.M.**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

**Abdushukurov B.B.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Ashirboyev S.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Jo‘raqo‘ziyev N.I.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Tilavov A.X.**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

**Xidraliyeva Z.R.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

**Aliqulova H.Q.**, katta o‘qituvchi;

**Turdialiyev A.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

**Qodirov U.A.**, o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tomonidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”** mavzusidagi 2024-yil 25-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

ma'ruzachini identifikatsiya qilish, nutqni qayta ishlash, mashinani o'rganish, interaktiv qurilmalar va elektron boshqaruv tizimlari va vositalarini ishlab chiqish uchun ishlatiladi. Raqamli gumanitar fanlarda dialektal korpus dialekt arxivini ishlab chiqish, dialektni saqlash va dialektni global platformalarda o'zligini ro'yxatga olish uchun targ'ib qilishda ajralmas hisoblanadi. Shunday qilib, dialektal korpus o'zining noyob til xususiyatlariga ko'ra sheva, uning so'zlashuvchilari, tilshunoslik va unga aloqador barcha fanlar uchun qimmatli til xazinasiga aylanadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bir guruh mutaxassis olimlar tomonidan O'zbek tilining ta'limiy korpusi va o'zbek tili morfoanalizatori yaratildi. Bugungi kunda morfoanalizator avtomatik morfem-morfologik tahlilda yuqori natijani ko'rsatyapti. Yaqin kelajakdagi vazifa orfografik me'yorlar asosida tuzilgan o'zbek tili dialektal korpusini tuzish va teglash hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amery R. Phoenix or Relic? Documentation of Languages with Revitalization in Mind. Language Documentation and Conservation, 2009. 3(2): 138- 148.
2. Austin P.K. Language documentation and meta-documentation. In: Ogilvie, S. and Jones, M. (eds.) Keeping Languages Alive: Documentation, Pedagogy and Revitalization. Cambridge: Cambridge University Press., 2013. Pp. 3-15.
3. Himmelmann N.P. Language documentation: What is it and what is it good for? In: Gippert, J.; Himmelmann, N.P. and Mosel, U. (eds.) Essentials of Language Documentation. Berlin: Mouton de Gruyter., 2006. Pp. 1-30.
4. Samarin W.J. Field Linguistics: A guide to Linguistic Field Work. New York: Holt, Reinhart and Winston., 1967.

### **QORAKO'L SHEVASI AUDIO MATERIALINI GRAFIK MATNGA AG'DARISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI**

#### **SOME CHARACTERISTICS OF CONVERTING AUDIO MATERIAL OF KORAKOL DIALECT INTO GRAPHIC TEXT**

**Samixon Ashirboyev**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

**Qilichova Nafisa**  
*ToshDO'TAU talabasi*

**Annotatsiya.** *O'zbek shevalari keyingi davrlarda muayyan darajada taraqqiyotga yuz tutayotganligi to'g'risida fikrlar aytib kelinmoqda, lekin shevalar keksa avlod nutqida o'zining tabiiy xususiyatini saqlab qolmoqda. Shevalar rivojlanishidagi har ikkala holatni o'rganish lozim, ya'ni yosh va keksa avlodning ayni shevasini o'rganish hozirgi dialektologiyamizning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu ishda keksa avlod vakillarining shevasini o'rganish maqsadida kichik bir eksperiment qilindi, ya'ni qorako'lilik keksa onaxonning shevasi yozib olindi va uning xususiyatlari transkripsiya asosida o'girildi. Natija bizning kutganimizni ham berdi, shu bilan birga, qo'shimcha yana tadqiqot olib borish va aniqlik kiritish lozimligini ham ko'rsatdi.*

**Kalit so'zlar:** sheva, dialektologiya, o'g'uz, qarluq lahjalari, audio va grafik matn, unli fonemalar, singarmonizm.

**Abstract.** Opinions are expressed that Uzbek dialects are developing to a certain extent in recent times, but dialects retain their natural characteristics in the speech of the older generation. It is necessary to study both situations in the development of dialects, that is, to study the same dialect of the young and old generation is one of the urgent problems of our current dialectology. In this work, a small experiment was conducted in order to study the dialect of representatives of the older generation, that is, the dialect of an old mother from Karakol was recorded and its features were translated based on transcription. The result met our expectations, but also indicated the need for further research and clarification.

**Key words:** dialect, dialectology, Oghuz, Qarluq dialects, audio and graphic text, vowel phonemes, synharmonism.

Keyingi davrda Korako'l shevasining o'g'uz shevalaridan yiroqlashib ketganligi to'g'risidagi axborotlarni ola boshladik. Qorako'llik talabalardan va ularning nutqidan shevaning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot olish qiyin bo'lmoqda. Buning boisi yoshlar adabiy tilda so'zlamodalar va shevada gaplashishni aksariyati o'zlaricha qoloqlik, madaniyatsizlik, o'ngg'aysizlik deb tushunib qolishgan.

Bu sheva dastlab I. Shamsiddinov tomonidan 1965 yilda tadqiq etilgan va o'g'uz shevalaridan biri sifatida talqin qilingan<sup>1</sup>. Keyingi davrda bu sheva bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan A. Allaberdiyev ishlarida Qorako'l shevasi ham tadqiqotga tortilgan, lekin bu shevaning o'g'uzligini asoslovchi leksik belgilar to'g'risida maxsus fikr aytmagan<sup>2</sup>. Muhimi, bu ishlarda Qorako'l shevasi o'g'uz shevalaridan biri sifatida e'tirof etilganligi o'zbek dialektologiyasi uchun ahamiyatli. Shu bilan birga, ayrim Korako'llik shaxslar (ular ichida tilshunoslar ham bor) sheva haqidagi o'zaro suhbatlarda bu sheva hozirgi kunda o'g'uz emas, balki qarluq shevalariga yaqinlashib ketgan degan ma'lumotlarni bildirishar edi. Bu esa bizda shu shevani qayta tadqiq qilish yoki o'rganib ko'rish g'oyasini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan Korako'llik talabamizga shu shevaning audio materialini olib kelish maslahati qilindi va uning olib kelgan audio material bilan tanishish jarayonida dastlab keyingi ma'lumotlar bir qadar tasdiqlangandek taassurot berdi, lekin bu audio materialni matnga ag'darish jarayonida asl haqiqat, ya'ni uning o'g'uz lahjasiga aloqadorligi o'z tasdiqini topdi. Bu fikrni asoslash uchun faktik materiallarni keltirishdan oldin uning audio va grafik matnini qisman keltirishni ma'qul ko'rdik (audio material eshittiriladi):

A:tam čopanīdi:. Kättä a:tam to:xsan yetti ja:šinda öldi:. İşqilip ö:züm o:ttis säkkizinči jil ämä:s, valī o:ttis a:ltinči yil mäniñ änä šu Arašipñ kelini: o:ttis sä:kkizinči jila tüşürdi-dä. Ha:lijam ža:nlarī sa:γ vo:sin bäčälär. E:rtän vilän turup, paxtaya, pa:dyoma ketejtik. Pa:dyomdan kelip, i:näk sa:γ, su:t bišir, xa:mir mu:šla, na:nī ja:p. Ta:ndira o:lovī ta:rtip, kä:stirlä gö:ši vilän sö:zisi nimäni: kärtčikāni: ta:ndirda biširäjtik. Gä:z jo:q, tö:k jo:q. Änä šu:nnaq vaxtlardajam bizlär kü:n kördik.Šu:nnaq bo:sajam aza:p demädik, sa:bir qildi:. İşqilip bu: kü:nlärä xuda: jetirdi:.

Diräzä jo:γjdi:, ĩe:şik jo:γjdi:, har bir ĩe:şik ä:nä mu:nnaq ha:vadan ö:j sa:viqtan **to:lijdi:.** Te:kivüz pa:l kö:rän jo:q, qo:liviz ti:kiš ma:šin körän jo:q. Ha:zir ha:jat ja:xši:, du:nja jü:zä **čixti:** bä:läm. **Xuda:ga** šükür, işqilip, ja:man ämä:s. Jä:šijmān de:gān a:dama e:ркиn za:man keldi **hazir.**

<sup>1</sup> Шасиддинов И. Каракульский говор узбекского языка: Авторкф. дис... филол наук. – Ташкент, 1965.

<sup>2</sup> Аллабердиев А. Бухро ш-уз шевалари лексикаси: Филол фан. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

Tölkä qimildagän hi:č qa:čan da:rt a:lmjdi: To:yrī, qimildamasa, bā:r, ji:jmän de:p o:tīrsa, u bo:lmagäni.

Ushbu kichik matn Qorako‘l shahri onaxoni nutqi bo‘lib, unda bu shevaning hozirgi holati to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish mumkin. To‘g‘ri, bir sheva vakili nutqi, garchi u o‘sha sheva vakili bo‘lsa-da, shevaning barcha xususiyatlarini ifoda qila olmaydi. Lekin shevani mumkin qadar yorita oladi. Ayniqsa, bu respondentning 90 yoshga yaqinlashib qolganligi shevani nisbatan to‘g‘ri tushunish uchun imkon beradi. Muhimi, Qorako‘l shahar shevasi haqidagi oldingi ma‘lumotlarimizning ayrimlari saqlanib qolganligini va ayrim masalalar munozara bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Avvalo, bu matndan shevaning o‘g‘uzligini asoslovchi faktlarini keltiramiz:

1. Shevada hamon 9 unli qatnashayotganligi ma‘lum bo‘ldi a, ä, i, ī, ü, u, o, ö, e. Ma‘lumki, 9 unli faqat o‘g‘uz emas, singarmonizmni saqlagan, shu jumladan, o‘g‘uz shevalarining umumiy qonuniyatidir. Bu fakt ham shevaning xususiyatini ko‘rsatish uchun belgilovchi ahamiyatga molik.

2. Shevada birlamchi cho‘ziq unlilar rang-barang qo‘llangan. Birlamchi cho‘ziqlik birinchi bo‘g‘inda ham keyingi bo‘g‘inlarda ham qayd qilinadi:

dastlabki bo‘g‘inda, otlarda: a:tam, ja:šinda va h.k.

sifatlarda: sa:γ, ja:rīy.

sonlarda: o:ttis, a:līnči, sā:kkizinči

olmoshkarda: šu:nnaq.

fe‘llarda: vo:sin, sa:γ-, bo:sajam

ravishlarda: e:rtāṇ, ha:zīr.

modal so‘zlarda: jo:q,

o‘zlashgan so‘zlarda: ža:nlarī, pa:dyoma, sa:bīr, gā:z.

Keyingi bo‘g‘inlarda: fe‘llarda: āmä:s, o‘zlashgan so‘zlarda: aza:p.

3. O‘g‘uz shevalariga xos jo‘nalish kelishigining –a/ä varianti amalda bor: pa:dyoma (hodyo‘mga), ta:ndīra (tandirga), kā:stirlä (kastrulaga).

4. Tushum kelishigining –i/ī affiksi bilan shakllanishi ham saqlangan: na:nī (nonni), o:lovī (olovni).

Qorabuloq shevasidagi kabi<sup>1</sup> fe‘larning III shaxsida va tushum kelishigida ultra cho‘ziqlik qayd qilinadi: čopanīdi:, öldi:, kelini:, jo:γijdi: va h.k. Shunisi xarakterliki, bu cho‘ziqlik orqa qator unlili so‘zlar oxirida kelsa ham, old qator unli maqomida cho‘ziq talaffuz qilinadi.

Audiomatndagi qimildagän, bo:lmagäni so‘zlarining singarmonizmga bo‘ysunmagani bizning diqqatimizni tortdi. Boshqa barcha o‘rinlarda singarmonizm saqlangan, hatto qimildamasa so‘zida bu qonunga rioya qilingan, lekin dastlabki ikki so‘zdagi –gän, –gäni affikslari esa singarmonizmga bo‘ysunmagan.

Matndagi te:kivüz so‘zidagi egalik shaklida –vüz variantining uchrashini qo‘shimcha tekshirish lozim, chunki bu affiks aslida Toshkent shahar, Qarshi va Mirishkor shevalariga xos bo‘lib, hozircha uning o‘g‘uz shevalarida ham qo‘llanishi to‘g‘risida ma‘lumot yo‘q. Albatta, bu faktlarni shevaning boshqa vakillaridan olingan matnlar orqali aniqlashtirish lozim bo‘ladai.

Eng muhimi, bu shevaning o‘g‘uz lahjasining o‘ziga xos bir shevasi ekanligini tasdiqlab olish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

<sup>1</sup> Qarang: Юдахин К.К. Некоторые особенности карабулакского говора // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент:Фан, 1957. – С. 33.

## MUNDARIJA

### YALPI YIG‘ILISH MA‘RUZALARI

|    |                                                                                                                                                                 |    |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1  | <b>Hamidulla Dadaboyev</b><br>Toshkent viloyati o‘zbek shevalari – til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manba                                        | 3  |
| 2  | <b>Salida Sharifova</b><br>Şota Rustavelinin “Pələng dərisi geymiş pəhləvan” əsərinin Şərq intibahına aid olması və Türk folkloru əsasında yaradılması haqqında | 7  |
| 3  | <b>Güntəkin Binnətova</b><br>Çağdaş Azərbaycan ədəbi dili və şivələrinin qarşılıqlı münasibətləri                                                               | 12 |
| 4  | <b>Murodqosim Abdiyev</b><br>Dialektal terminologiya – adabiy til lug‘at boyligini oshiruvchi manba                                                             | 16 |
| 5  | <b>Baxtiyor Abdushukurov</b><br>Kul tigin bitigtoshi va o‘zbek tili shevalari                                                                                   | 20 |
| 6  | <b>Berdak Yusufov</b><br>Alisher Navoiy leksikasi va o‘g‘uz shevalari                                                                                           | 26 |
| 7  | <b>Abdulhay Sobirov</b><br>Andijon dialektal zonasi haqida ba’zi bir mulohazalar                                                                                | 31 |
| 8  | <b>Нұрлан Мыңбаев</b><br>Түркі фольклоры және топан су тақырыбы                                                                                                 | 35 |
| 9  | <b>Kifayət İmamquliyeva</b><br>Azərbaycan dialektlərində özbək dilinin elementləri                                                                              | 44 |
| 10 | <b>Yo‘ldosh Ibragimov</b><br>Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarining lingvoareal talqini                                                                      | 48 |
| 11 | <b>Zulxumor Xolmanova</b><br>O‘zbek shevalaridagi frazemalarning aksiolingvistik tadqiqi                                                                        | 51 |
| 12 | <b>Botir Elov,</b><br><b>Oqila Abdullayeva</b><br>Dialektal korpusni qurish va uning ahamiyati                                                                  | 56 |
| 13 | <b>Samixon Ashirboyev,</b><br><b>Nafisa Qilichova</b><br>O‘zbek shevalari matnlarining audio variantini transkripsiya qilish muammolari                         | 60 |

### 1-SHO‘BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA

|   |                                                                                                                                        |    |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1 | <b>Özeren Mehmet</b><br>Çolpan’ın “Buzulgan Ölkege, Köñil, Tün, Ziyay-yi Kamer” şiirlerine semiyotik bakiş                             | 63 |
| 2 | <b>Babazadə Rəxşanə</b><br>Azərbaycan dilinin Salyan dialektində milli leksik arxaizmlər                                               | 67 |
| 3 | <b>Ерсайын Молдасанов,</b><br><b>Нуржан Абдувалитов</b><br>Ұлттық бағыт және қазақ жазуы                                               | 75 |
| 4 | <b>Qüdsiyyə Qəmbərova</b><br>Azərbaycan şivələrindəki bəzi feillərin özbək dili ilə ortaq paralelləri                                  | 84 |
| 5 | <b>Yarmuxammad Madaliyev,</b><br><b>Hulkar Aliqulova</b><br>Xalq qo‘shiqclarida “bo‘z” so‘zining ma‘no ko‘chish bilan bog‘liq jihatlar | 87 |